Ismailov Erkin Faxretdinovich	
IQTISODIYOTDA DAVLAT ISHTIROKINI QISQARTIRISH KONTEKSTIDA TIJORAT FAOLIYATI BILAN	
SHUG'ULLANADIGAN VA RAQOBAT RIVOJLANGAN SOHALARDA DAVLAT MUASSASALARINI	
ISLOH QILISH: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	1006
Sharapov Umidjon Shavkatovich	
MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBANI O'RGANISH VA O'ZBEKISTON	
SHAROITIDA QO'LLASH TAMOIYILLARI	1013
Fayyoza Xalimova Nafasovna	
JIZZAX VILOYATIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASH TIZIMINING SHAKLLANISHI	
VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI IQTISODIY TAHLILI	1018
Saloxitdinov Sherzod Farxodovich	
STRATEGIK TARMOQLARDA IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR, INNOVATSION	
TEXNOLOGIYALAR VA JAHON TAJRIBASI.....	1024
Xushboqova Kamola Rustam qizi, Dilfuza Xamzayeva	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH	1029
Zaripova Sayohat Zafarovna	
INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES FOR UZBEKISTAN'S TEXTILE INDUSTRY:	
CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND ECONOMETRIC EVIDENCE.....	1034
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Sarvarbek Allayev Erkin ugli, Shavkat Asrolovich Ruziev	
YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY MADANIYATNING RIVOJLANISHI.....	1041
Qodirova Shahodat G'aybullayevna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA SHARIAT TAMOIYILLARIGA ASOSLANGAN BANKLAR FAOLIYATINI	
TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI ("TRASTBANK" XAB MISOLIDA)	1048
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI OSHIRISHNING INTEGRATSIYALASHGAN MEXANIZMLARI	
(NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....	1055
Gulyamov Ulug'bek G'afurovich	
BUDJET TIZIMIDA JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARINI	
PROGNOZLASHTIRISHNING EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	1059
Babayev Shavkat Bayramovich	
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH	
MASALALARI	1067
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	



BOJXONA YIG'IMLARINING UNDIRILISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	1072
Jurayev Jonibek Javliyevich	
DAVLAT MOLIVASINI RAQAMLASHTIRISH VA FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI.....	1078
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	
DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO BAHOLASH.....	1083
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	1088
Avazbek Jo'rayev	
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	1094
Umarova Lola Erkinovna	
REMOTE PREVENTION AND CORRECTION OF SPINAL DISORDERS IN OFFICE WORKERS VIA TELEGRAM BOT: RESULTS OF A PILOT STUDY.....	1101
David Kalendarev	
MODERN APPROACHES TO IMPROVING MANAGEMENT ACCOUNTING IN COMMERCIAL BANKS.....	1107
Soatov Farhod Komiljon oglu	
O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV MA'LUMOTLAR ASOSIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	1115
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li	
DAVLAT XARIDLARIDA RAQAMLI NAZORAT VA SUN'IIY INTELLEKT ISHTIROKI.....	1121
Abdullaeva Nigora Kilichbekovna	
MEHNAT BOZORI RIVOJLANISH DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	1127
Islomov Bobur Bahodir o'g'li	
SELYULOZA-QOG'UZ ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARIDA MEHNAT HAQI HISOBINING AMALDAGI HOLATI VA XUSUSIYATLARI.....	1133
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA TADQIQOT VA ISHLANMA XARAJATLARI HISOBINI HUIJATLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1136
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XALQARO VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI.....	1140
Turayev Abduvoxid Kuldashevich	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI VA ULARDAN FOYDALANISH BILAN BOG'LIQ BA'ZI MASALALAR.....	1146
Ernazarov Narmet Saparbayevich	
MEHNAT UNUMDORLIGI VA RESURLAR SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1150
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR AUDITINI REJALASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI.....	1158
Toshimov Azizbek Hakimovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN INVESTITSIIYA LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1162
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TOMONIDAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0005-7188-3925

n.qurbonov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini molialashtirish istiqbollari moliyaviy barqarorlikni baholashning integrallashgan yondashuvlari asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini aniqlash uchun Financial Stability Index FSI ko'rsatkichi hamda aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida kapital tuzilmasi, pul oqimlari barqarorligi, dividend siyosati, aksiyadorlar faolligi va risk mezonlarini qamrab oluvchi Molialashtirish barqarorligi indeksi MBI ko'rsatkichi taklif etilgan. FSI ko'rsatkichi asosida investitsiya loyihalarini yuqori barqarorlik zonasi va yuqori xavf zonasi bo'yicha tasniflash imkoniyati asoslangan. MBI esa aksiyadorlik jamiyatlarining molialashtirish manbalaridan samarali foydalanish, risklarni baholash va investitsiya qarorlarining barqarorligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks baholash mezonini sifatida ishlab chiqilgan. Maqolada ushbu indekslardan foydalanish aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini molialashtirish samaradorligini oshirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: Aksiyadorlik jamiyatlari, investitsiya loyihalari, molialashtirish, moliyaviy barqarorlik, Financial Stability Index, FSI, Molialashtirish barqarorligi indeksi, MBI, kapital tuzilmasi, pul oqimlari, dividend siyosati, aksiyadorlar faolligi, risk mezonlari, investitsiya qarorlari.

Abstract. This article examines the prospects for financing investment projects by joint-stock companies based on integrated approaches to assessing financial stability. The study proposes the Financial Stability Index (FSI) for evaluating the financial sustainability of investment projects, as well as the Financing Stability Index (MBI), which incorporates capital structure, cash flow stability, dividend policy, shareholder activity, and risk criteria in investment decision-making. The FSI enables the classification of investment projects into a high stability zone and a high-risk zone, while the MBI serves as a comprehensive assessment tool for improving the efficiency of financing sources, evaluating risks, and ensuring the stability of investment decisions. The article scientifically substantiates the importance of these indices in increasing the efficiency of investment project financing, reducing financial risks, and ensuring long-term sustainable development of joint-stock companies.

Key words: joint-stock companies, investment projects, financing, financial stability, Financial Stability Index, FSI, Financing Stability Index, MBI, capital structure, cash flows, dividend policy, shareholder activity, risk criteria, investment decisions.

Аннотация. В данной статье исследуются перспективы финансирования инвестиционных проектов акционерными обществами на основе интегрированных подходов к оценке финансовой устойчивости. В исследовании предложен показатель Financial Stability Index (FSI) для оценки финансовой устойчивости инвестиционных проектов, а также Индекс устойчивости финансирования (MBI), включающий структуру капитала, стабильность денежных потоков, дивидендную политику, активность акционеров и критерии риска при принятии инвестиционных решений. Показатель FSI позволяет классифицировать инвестиционные проекты по зонам высокой устойчивости и повышенного риска, а MBI выступает комплексным инструментом оценки эффективности использования источников финансирования, анализа рисков и обеспечения устойчивости инвестиционных решений. В статье научно обосновано значение данных индексов в повышении эффективности финансирования инвестиционных проектов, снижении финансовых рисков и обеспечении долгосрочного устойчивого развития акционерных обществ.

Ключевые слова: акционерные общества, инвестиционные проекты, финансирование, финансовая устойчивость, Financial Stability Index, FSI, индекс устойчивости финансирования, MBI, структура капитала, денежные потоки, дивидендная политика, активность акционеров, критерии риска, инвестиционные решения.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kapital bozorlarining chuqurlashuvi, korporativ moliyalashtirish mexanizmlarining diversifikatsiyalashuvi hamda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda risk omillarining kuchayib borishi aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini kompleks baholash zaruratini oshirmoqda. Ayniqsa, investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida faqat rentabellik yoki likvidlik ko'rsatkichlariga tayanish yetarli bo'lmay, kapital tuzilmasi, pul oqimlarining barqarorligi, dividend siyosati, aksiyadorlar faolligi va risk darajasini o'zaro bog'liq holda baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish istiqbollarini belgilashda moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash, loyihalarning uzoq muddatli samaradorligini baholash hamda moliyalashtirish manbalarining optimal tarkibini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini baholashda Financial Stability Index — FSI ko'rsatkichidan foydalanish, xususan, $FSI \geq 0,7$ bo'lgan holatni "yuqori barqarorlik zonasi", $FSI \leq 0,4$ bo'lgan holatni esa "yuqori xavf zonasi" sifatida tasniflash loyihalarni moliyaviy mezonlar asosida aniq baholash imkonini beradi.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya qarorlarini qabul qilishda moliyalashtirish barqarorligini kompleks baholash uchun kapital tuzilmasi, pul oqimlari barqarorligi, dividend siyosati, aksiyadorlar faolligi va risk mezonlarini qamrab oluvchi integrallashgan Moliyalashtirish barqarorligi indeksi — MBI ko'rsatkichini shakllantirish ilmiy jihatdan muhimdir. Mazkur indeks aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish salohiyatini baholash, moliyaviy risklarni oldindan aniqlash va barqaror moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish istiqbollari FSI va MBI ko'rsatkichlari asosida tadqiq etilib, moliyaviy barqarorlikni baholashning integrallashgan yondashuvi ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya qarorlarining sifatini oshirish, moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish hamda uzoq muddatli korporativ barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda moliyaviy cheklovlar va kapitalga kirish imkoniyati muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. I. Abdeljawad va hammualliflari rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida korporativ investitsiya qarorlariga moliyaviy cheklovlarning ta'sirini tadqiq etib, kapital bozori nomukammalligi investitsiya hajmi va moliyalashtirish manbalarini tanlashga bevosita ta'sir qilishini asoslagan. Ushbu yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda faqat rentabellik emas, balki moliyalashtirishga kirish imkoniyati, qarz yuki va ichki resurslar yetarliligini ham baholash zarurligini ko'rsatadi. Mazkur ilmiy qarash Moliyalashtirish barqarorligi indeksi (MBI) tarkibida kapital tuzilmasi va moliyaviy risk mezonlarini kiritish zaruratini asoslaydi.

H. Beladi, C.C. Chao va M. Hu tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pul oqimlaridagi noaniqlik korxonalarning investitsion faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Mualliflar fikricha, pul oqimlari barqaror bo'lmagan korxonalar investitsiya qarorlarini ehtiyotkorlik bilan qabul qiladi, bu esa innovatsion va uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Ushbu xulosa aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya loyihalarini baholashda pul oqimlari barqarorligini alohida indikator sifatida kiritish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, MBI tarkibida pul oqimlari barqarorligi mezonining mavjudligi investitsiya qarorlarining moliyaviy asoslanganligini kuchaytiradi.

S.P. Chowdhury va hammualliflari korporativ boshqaruv va kapital tuzilmasi qarorlari o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etib, direktorlar kengashi xususiyatlari hamda mulkchilik tuzilmasi kompaniyalarning qarz va xususiy kapital nisbatini shakllantirishda muhim rol o'ynashini asoslagan. Ushbu tadqiqot natijalari aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish qarorlari faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga emas, balki korporativ boshqaruv sifati va aksiyadorlar manfaatlarining uyg'unligiga ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv MBI ko'rsatkichiga aksiyadorlar faolligi va risklarni boshqarish mezonlarini kiritishning ilmiy asosini mustahkamlaydi.

T. Bagh, A.I. Hunjra, C.G. Ntim va M.M. Naseer tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan tadqiqotda moliyaviy moslashuvchanlik, investitsiya samaradorligi va institutsional mulkchilik kompaniyalarning riskka moyilligi bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Mualliflar moliyaviy moslashuvchanlik kompaniyalarga riskli, biroq



istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkonini berishini, investitsiya samaradorligi va institutsional mulkchilik esa bu jarayonda muvozanatlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qilishini ko'rsatgan. Ushbu xulosa aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda risk, kapital manbalari va boshqaruv mexanizmlarini integrallashgan holda baholash zarurligini asoslaydi.

S. Haryanto tomonidan 2025-yilda olib borilgan tadqiqotda korporativ moliyaviy qarorlar — investitsiya, moliyalashtirish va dividend siyosati — kompaniya qiymatiga ta'sir qilishi hamda moliyaviy barqarorlik bu jarayonda muhim moderator omil sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlangan. Ushbu yondashuv aksiyadorlik jamiyatlari uchun dividend siyosatini faqat foydani taqsimlash vositasi sifatida emas, balki investorlar ishonchi, aksiyadorlar faolligi va moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi indikator sifatida baholash imkonini beradi. Shu sababli, dividend siyosatini MBI tarkibiy elementi sifatida kiritish investitsiya qarorlarining uzoq muddatli barqarorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish istiqbollarini baholashda tizimli, kompleks va indeksli yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini korporativ moliya nazariyalari, kapital tuzilmasi konsepsiyasi, dividend siyosati, pul oqimlari barqarorligi hamda investitsion risklarni baholashga oid ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini aniqlash uchun Financial Stability Index (FSI) ko'rsatkichidan foydalanish taklif etildi. Ushbu indeks investitsiya loyihalarining moliyaviy holatini kompleks baholashga xizmat qilib, $FSI \geq 0,7$ bo'lgan holat "yuqori barqarorlik zonasi", $FSI \leq 0,4$ bo'lgan holat esa "yuqori xavf zonasi" sifatida talqin qilindi. Mazkur yondashuv investitsiya loyihalarining moliyaviy xavfsizlik darajasini aniqlash va moliyalashtirish qarorlarini asoslash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida moliyalashtirish barqarorligini baholash maqsadida integrallashgan Moliyalashtirish barqarorligi indeksi (MBI) ko'rsatkichi shakllantirildi. Ushbu indeks kapital tuzilmasi, pul oqimlarining barqarorligi, dividend siyosati, aksiyadorlar faolligi va risk mezonlari kabi omillarni o'z ichiga oladi. MBI ko'rsatkichi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish salohiyatini aniqlash, mavjud risklarni baholash va uzoq muddatli barqarorlikka yo'naltirilgan moliyaviy qarorlarni qabul qilishda metodik vosita sifatida qo'llanildi.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, taqqoslama tahlil, guruhlash, indekslash, moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, ekspert baholash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, indekslash usuli orqali FSI va MBI ko'rsatkichlari tarkibiy mezonlar asosida shakllantirildi; taqqoslama tahlil usuli yordamida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyalashtirish imkoniyatlari va investitsiya loyihalarining barqarorlik darajasi o'zaro solishtirildi; umumlashtirish usuli orqali esa investitsiya loyihalarini moliyalashtirish istiqbollariga oid ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda moliyaviy barqarorlikni kompleks baholash zarurligini asoslaydi. FSI va MBI indekslaridan foydalanish investitsiya loyihalarining xavf darajasini oldindan aniqlash, kapital manbalarining maqbul tarkibini shakllantirish hamda aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari bo'limida keltirilgan jadval va rasmlar aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayoniga ta'sir etuvchi moliyaviy va boshqaruv omillarini tizimli baholashga qaratilgan. Xususan, dastlab moliyaviy investitsiyalar tarkibi va dinamikasi tahlil qilinib, investitsiya faoliyatining barqarorlik darajasi aniqlanadi. Keyingi jadval va rasmlarda esa kapital tuzilmasi, pul oqimlarining barqarorligi, dividend siyosati, aksiyadorlar faolligi hamda risk mezonlari asosida investitsiya qarorlarining moliyaviy asoslanganligi baholanadi. Mazkur tahlillar aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda faqat alohida ko'rsatkichlarga tayanish yetarli emasligini, balki ularni o'zaro bog'liq holda kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi. Shu bois tadqiqot natijalarida integrallashgan Moliyalashtirish barqarorligi indeksi (MBI)ni shakllantirish hamda undan investitsiya qarorlarini qabul qilishda mezon sifatida foydalanish ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab beriladi (1-jadval).



1-jadval. “Yangi Angren IES” AJda moliyaviy investitsiyalar tarkibi va dinamikasi

Ko'rsatkichlar	Yillar			
	2021	2022	2023	2024
Uzoq muddatli investitsiyalar	22,18	21,30	22,07	22,48
Qimmatli qog'ozlar	9,27	9,32	9,40	9,45
Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga investitsiya	7,52	7,79	8,56	8,97
Qisqa muddatli investitsiyalar	5,78	3,77	2,15	2,47
Kapital qo'yilmalar	38,70	36,08	36,08	36,08
Jami aktivlar	1 020,80	1 012,15	1 183,02	1 010,53

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, “Yangi Angren IES” AJda 2021-2024-yillarda moliyaviy investitsiyalar tarkibi nisbatan barqaror shakllangan bo'lib, asosiy ulush uzoq muddatli investitsiyalar va kapital qo'yilmalar hissasiga to'g'ri keladi. Uzoq muddatli investitsiyalar 2021-yilda 22,18 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 22,48 mlrd so'mga yetgan. Bu esa korxonada investitsiya siyosati asosan uzoq muddatli aktivlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lar 2021-yildagi 9,27 mlrd so'mdan 2024-yilda 9,45 mlrd so'mga oshgan. Mazkur o'sish yuqori sur'atli bo'lmasa-da, aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy aktivlar portfelini saqlab qolish va uni bosqichma-bosqich kengaytirish tendensiyasi mavjudligini bildiradi. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga investitsiyalar esa 7,52 mlrd so'mdan 8,97 mlrd so'mga oshib, tahlil davrida nisbatan ijobiy o'sish dinamikasini namoyon qilgan.

Shu bilan birga, qisqa muddatli investitsiyalar hajmi 2021 yildagi 5,78 mlrd so'mdan 2024 yilda 2,47 mlrd so'mga kamaygan. Bu holat jamiyatda qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalardan ko'ra uzoq muddatli investitsiyalarga ustuvorlik berilayotganini anglatadi. Biroq qisqa muddatli investitsiyalar hajmining kamayishi likvid moliyaviy aktivlar ulushining qisqarishiga ham olib kelishi mumkin.

Kapital qo'yilmalar 2021 yilda 38,70 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-2024-yillarda 36,08 mlrd so'm darajasida saqlangan. Bu esa asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilash va modernizatsiya qilish jarayonida barqaror, biroq sezilarli kengayish kuzatilmayotganini ko'rsatadi. Jami aktivlar esa 2021-yildagi 1 020,80 mlrd so'mdan 2023-yilda 1 183,02 mlrd so'mga oshgan, biroq 2024-yilda 1 010,53 mlrd so'mgacha kamaygan. Ushbu tebranishlar aktivlar tarkibida investitsion va ishlab chiqarish resurslarining qayta taqsimlanishi mavjudligini anglatadi (2-jadval).

2-jadval. Aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini FSI ko'rsatkichi asosida baholash mezonlari

FSI ko'rsatkichi darajasi	Baholash zonasi	Moliyaviy holat tavsifi	Investitsiya qarori bo'yicha yondashuv
$FSI \geq 0,7$	Yuqori barqarorlik zonasi	Investitsiya loyihasi moliyaviy jihatdan barqaror, pul oqimlari yetarli, qarz yuklamasi maqbul va kapital qaytimi ijobiy baholanadi	Loyihani moliyalashtirish va kengaytirish maqsadga muvofiq
$0,4 < FSI < 0,7$	O'rta barqarorlik zonasi	Loyiha moliyaviy jihatdan nisbatan barqaror, biroq ayrim risk omillari mavjud; rentabellik, likvidlik yoki qarz yuklamasi bo'yicha qo'shimcha tahlil talab etiladi	Loyihani shartli moliyalashtirish, risklarni kamaytirish choralarini belgilash zarur
$FSI \leq 0,4$	Yuqori xavf zonasi	Investitsiya loyihasida moliyaviy beqarorlik ehtimoli yuqori, pul oqimlari yetarli emas yoki qarz yuklamasi ortgan bo'lishi mumkin	Loyihani moliyalashtirishni cheklash, qayta ko'rib chiqish yoki rad etish tavsiya etiladi

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini baholashda FSI ko'rsatkichi loyihaning risk darajasi va moliyaviy imkoniyatlarini aniq mezonlar asosida tasniflash imkonini beradi. Xususan, $FSI \geq 0,7$ bo'lgan investitsiya loyihalari yuqori barqarorlik zonasiga



kiradi. Bu holat loyihaning pul oqimlari yetarli, qarz yuklamasi maqbul va investitsiyadan kutilayotgan moliyaviy natija ijobiy ekanligini anglatadi.

$0,4 < FSI < 0,7$ oralig'idagi loyihalar o'rta barqarorlik zonasiga mansub bo'lib, ular bo'yicha investitsiya qarorini qabul qilishda qo'shimcha moliyaviy tahlil talab etiladi. Bunday loyihalarda likvidlik, rentabellik, qarz yuklamasi yoki pul oqimlari bo'yicha ayrim xavf omillari mavjud bo'lishi mumkin. Shu sababli mazkur zonadagi loyihalarni moliyalashtirishda risklarni kamaytirish choralari bilan birgalikda bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq.

$FSI \leq 0,4$ bo'lgan loyihalar esa yuqori xavf zonasiga kiritiladi. Bu investitsiya loyihasining moliyaviy beqarorlik ehtimoli yuqori ekanligini, pul oqimlari yetarli emasligini yoki qarz yuklamasi ortganligini bildiradi. Bunday sharoitda loyihani moliyalashtirishni cheklash, uning moliyaviy parametrlarini qayta ko'rib chiqish yoki muqobil investitsiya yo'nalishlarini tanlash zarur bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, FSI mezonlari asosida investitsiya loyihalarini baholash aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya qarorlarini subyektiv yondashuvdan ko'ra aniq indikatorlarga asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuv moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash, barqaror loyihalarni tanlab olish va investitsiya resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish istiqbollarini baholashda faqat alohida moliyaviy ko'rsatkichlarga tayanish yetarli emas. Investitsiya qarorlarining samaradorligini ta'minlash uchun kapital tuzilmasi, pul oqimlari barqarorligi, dividend siyosati, aksiyadorlar faolligi hamda risk mezonlarini o'zaro bog'liq holda kompleks baholash zarur. Shu jihatdan, tadqiqotda taklif etilgan Financial Stability Index (FSI) va Moliyalashtirish barqarorligi indeksi (MBI) aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini tanlash, moliyalashtirish va ularning barqarorligini aniqlashda muhim uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda FSI ko'rsatkichi asosida investitsiya loyihalarini yuqori barqarorlik, o'rta barqarorlik va yuqori xavf zonalariga ajratish imkoniyati asoslandi. Xususan, $FSI \geq 0,7$ bo'lgan loyihalarni moliyaviy jihatdan barqaror deb baholash, $0,4 < FSI < 0,7$ oralig'idagi loyihalar bo'yicha qo'shimcha tahlil va risklarni kamaytirish choralari belgilash, $FSI \leq 0,4$ bo'lgan loyihalarni esa qayta ko'rib chiqish yoki moliyalashtirishni cheklash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Bu yondashuv investitsiya qarorlarini subyektiv baholashdan ko'ra aniq indikatorlar asosida qabul qilish imkonini beradi.

"Yangi Angren IES" AJ misolida amalga oshirilgan tahlil aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy investitsiyalar tarkibi asosan uzoq muddatli investitsiyalar va kapital qo'yilmalarga yo'naltirilganini ko'rsatdi. Uzoq muddatli investitsiyalar hajmining nisbatan barqaror saqlanishi korxonada investitsiya siyosatining uzoq muddatli aktivlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilganligini bildiradi. Shu bilan birga, qisqa muddatli investitsiyalar hajmining kamayishi likvid moliyaviy aktivlar ulushi qisqarishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda uzoq muddatli barqarorlik bilan bir qatorda joriy likvidlik va risklarni boshqarish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, MBI ko'rsatkichini shakllantirish aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarining maqbul tarkibini aniqlash, pul oqimlari barqarorligini baholash, dividend siyosatini investitsion faollik bilan uyg'unlashtirish hamda aksiyadorlar manfaatlarini hisobga olgan holda risklarni boshqarish imkonini beradi. FSI va MBI indekslaridan birgalikda foydalanish esa investitsiya loyihalarining moliyaviy xavfsizligini baholash, moliyalashtirish qarorlarining asoslanganligini oshirish va aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish istiqbollarini belgilashda integrallashgan indeksli yondashuvlardan foydalanish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv investitsiya loyihalarini tanlashda risklarni oldindan aniqlash, resurslardan samarali foydalanish, kapital qaytimini oshirish va korporativ moliyaviy boshqaruv sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli FSI va MBI indekslarini aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya siyosatini ishlab chiqish, loyihalarni moliyalashtirish va moliyaviy barqarorlikni monitoring qilish amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdeljawad I., va boshqalar. Financing Constraints and Corporate Investment Decision: Evidence from an Emerging Economy. Competitiveness Review, 2024.
2. Beladi H., Chao C.C., Hu M. Cash Flow Uncertainty, Financial Constraints and R&D Investment. International Review of Financial Analysis, 2021.
3. Chowdhury S.P. va boshqalar. Corporate Governance and Capital Structure Decisions. Journal of Risk and Financial Management, 2024.



4. Bagh T., Hunjra A.I., Ntim C.G., Naseer M.M. Capitalizing on Risk: How Corporate Financial Flexibility, Investment Efficiency, and Institutional Ownership Shape Risk-Taking Dynamics. *International Review of Economics & Finance*, 2025.
5. Haryanto S. Corporate Financial Decisions, Financial Stability, and Firm Value. *International Journal of Business Studies*, 2025.
6. Damodaran A. *Applied Corporate Finance*. 5th Edition. Wiley, 2022.
7. Ross S.A., Westerfield R.W., Jaffe J., Jordan B.D. *Corporate Finance*. 13th Edition. McGraw-Hill Education, 2022.
8. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F., Edmans A. *Principles of Corporate Finance*. 14th Edition. McGraw-Hill Education, 2023.
9. OECD. *Corporate Governance Factbook 2023*. OECD Publishing, 2023.
10. International Finance Corporation. *Corporate Governance Methodology*. IFC, World Bank Group, 2023.
11. World Bank. *Global Investment Competitiveness Report 2021/2022: Rebuilding Investor Confidence in Times of Uncertainty*. World Bank Group, 2022.
12. CFA Institute. *Corporate Issuer and Equity Valuation: Investment Analysis and Portfolio Management*. CFA Institute, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>